



THE CONCEPT OF JUSTICE IN THE VIEWS OF MAHMOUD AZ-ZAMAKHSHARI

Zafar Adilov

Associate Professor, (PhD)

head of the Department of General Professional Sciences Ma'mun University

Zafaradilov68@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Human, justice, righteousness, science, knowledge, peace, equality, truth and non-violence, politics, governance, state and society.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article analyzes the concept of justice in the governance of the state and society of the thinker, its role in the relations between man and society. Also, the idea of the interconnection of the ideas of the thinker with the reforms of the state and society today is revealed on the basis of an analytical approach, and the specific features of the socio-political environment of the time when the thinker lived are also revealed.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY QARASHLARIDA ADOLAT TUSHUNCHASI

Zafar Adilov

Ma'mun universiteti Umumkasbiy fanlar kafedrasi mudiri dotsent, f.f.d.,(PhD)

Zafaradilov68@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Inson, adolat, to'g'rilik, ilm, bilim, tinchlik, tenglik, haqiqat va faravonlik, siyosat, boshqaruv, davlat va jamiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mutafakkir allomaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi adolat konsepsiysi, uning inson va jamiyat munosabatlarida tutgan o'rnii tahlil qilinadi. Shuningdek, mutafakkir alloma g'oyalarining bugungi kun davlat va jamiyat islohotlar bilan o'zaro bog'liqligi g'oyasi tahliliy yondashuv asosida ochib berilgan hamda alloma yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning ham o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

КОНЦЕПЦИЯ СПРАВЕДЛИВОСТИ ВО ВЗГЛЯДАХ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ

Зафар Адилов

доцент, (PhD), заведующей кафедрой
Общепрофессиональных наук
Университета Мамуна
Zafaradilov68@gmail.com
Ташкент Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Человек, справедливость, праведность, наука, знание, мир, равенство, истина и ненасилие, политика, управление, государство и общество.

Аннотация: В данной статье анализируется концепция справедливости в управлении государством и обществом мыслителя, её роль в отношениях человека и общества. Также на основе аналитического подхода раскрывается идея взаимосвязи идей мыслителя с реформами государства и общества сегодня, а также раскрываются особенности социально-политической обстановки времени жизни мыслителя.

Kirish. Dunyoda inson zoti borki, o‘zi uchun adolat izlaydi. Kishining ijtimoiy munosabatlarda, ma’naviy inqiroz xolatida o‘zida adolatga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Chunki haq egasiga haqqini berishga intilish adolat deb ataladi. Uning ziddi esa zulmdir. Bu esa jamiyatda insonlar uchun adolatning qadriyat sifatida ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun inson har bir harakatini qonun va adolat doirasida qilishga intilishi lozim. Mamlakatning taraqqiyoti va farovonligi adolat bilan qo‘lga kiritiladi. Adolat tushunchasi o‘zbekcha etimologik lug‘atlarda “odillik” odilona ish tutish, odillik maa’nolarini beradi.

Adolat – ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha bo‘lib, inson va jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy ong darajasida katta ro‘l o‘ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruqlar va ayrim shaxslarning adolatni o‘z ichiga oluvchi tushunchalarini o‘zida aks ettiradi. Siyosiy xattiharakatlar, huquq va burch me’yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e’tirof qilish mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihatni jamiyat a’zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o‘zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihatni insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariiga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g‘amini yeishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o‘z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi.

Davlat o‘z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a’zolarining mol-mulkı daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta’minlaydi .

Adabiyotlar tahlili va metod. Maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror va nususul axbor”. (“Yaxshilar bahori va xabarlar matnlari”). J. 3. Bag‘dod: 1975., “Nozik iboralar”. – T.: Kamalak, 1992., Amir Temurning Temur tuzuklari.- T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1996., Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy- huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. va I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rtta Osiyo tarixida tutgan o‘rnii va roli. - T.: FAN, 1993. kitob va darsligidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun hizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylilik va vorisiylik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Mahmud az-Zamaxshariy “Atvahuzzahab” nomli asarida; 63- maqolasida adolat bilan zulumni shunday taqqoslaydi: - Tiniq suvdan keyin loyqa suvni ichish adolatdan sung zulm qilishga o‘xshaydi. Adolat suviga to‘lib toshgan buloq yaltiratib sayqallangan ko‘zgudan sofroq, so‘zni mo‘ljalga uradigan balik tildan o‘tkirroqdir. Zulmning chiqadigan joyi esa sassiq qora balchiqdan ko‘ra loyqaroq, uzoqqa cho‘zilgan va’dadan ko‘ra achchikroqdir. Insofli odam birodarining haqini yeyishni yomon ko‘rgani uchun uni egasiga beradi. Zolim esa birovning haqiga ishqiboz bo‘lgani uchun uni egasiga qoldirmasdan yeb qo‘yadi deb ta’rif beradi. Alloma adolat va zulimni falsafiy qiyoslab oson bir uslubda adolatli va zulumkor sifatlarini tariflab beradi. Uning ta’rifiga ko‘ra adolatli kishi taza suv kabiydir, insonlarga manfa’t beruvchi buloq ,so‘zlari ma’no va hikmatga to‘la, birovning xaqqidan qo‘rqadigan, amonatni egasiga beradigan, insofli o‘z vazifasini vijdon bilan bajaruvchi. Zolim kishi loyqa suvdek ishlari nopol, birovlarning xaqqini yeydigan, amali, tili orqali insonlaorga zulm qilib ijtimoiy muhitni zarar yetkazadi deb insonlarni adolatli bo‘lishga chaqiradi. Shuningdek, alloma adolatli siyosat g‘oyasi jamiyatni mo‘tadil yashashi va taraqqiy etishi uchun amaliy kuchga ega ekanligini quyidagicha ifodalaydi: “Adolat cho‘qqidagi qo‘rg‘ondir. Uni sel oqizolmas, sel buzolmas”. O‘z fikrini qo‘llab quvvatlash maqsadida Aristotelning ham bu boradagi fikrini keltirib o‘tadi: “Adolat go‘zallikdir va u barcha go‘zalliklarning sababchisidir, shuning uchun ham go‘zallik har bir mo‘tadillikda mavjuddir. Jabir xunuklikdir va u barcha xunukliklarning sababchisidir, shuning uchun ham xunuklik har bir mo‘tadillikdan tashqarida mavjuddir”.

Mutafakkir davlat tizilmalari faoliyatini olib borishda umuminsoniy qadriyat bo‘lgan “insof” tamoyiliga amal qilishni taklif qiladi: U “Agar podshoh o‘z mulkini insof ustiga qurmasa, uni isyon xarob qiladi” - degan g‘oyalari orqali, alloma hokimiyat sub’ektlarida adolat

tamoyiliga rag‘bat uyg‘otishni istaydi. Mashhur tarixiy shaxslarning bu borada bildirgan fikrlariga murojaat qiladi. Jumladan, soseniylar hukmdori Ardasherning “Agar shoh adolatga rag‘bat qilsa, xalq unga itoat qilishlikka rag‘bat qiladi”, degan fikrini dalil qilib keltiradi.

Az-Zamaxshariy ijtimoiy sub‘ektni muayyan ijtimoiy mavqega ega qiladigan boylikdan uzoqda bo‘lishga harakat qildi. U boylik va mol-dunyoning o‘ziga yarasha katta va mashaqqatli mas‘uliyati bor deb tushundi. Bu mas‘uliyatlar va mashaqqatlar uni o‘zi tanlagan yo‘lidan chalg‘itishidan xavfsiradi: “Bu dunyo mol-mulkini zimmangga va bo‘yningga olishlikda og‘ir mas‘uliyatli burchlar bor (ya’ni, o‘zgalarining shon-sharaflari bilan bog‘liq ishlarni gardaningga olishda o‘ylab ish tut ma’nosida)” - deb insonlarni dunyo moliga ega bo‘lish jamiat taraqqiyotiga hissa qo‘shish, ilm toliblari, imkoniyati cheklangan insonlarga moliyaviy sarmoya ajratish boy badavlat kishilarning gordonidagi mas‘liyatli vazifa deb, badavlat insonlarni mol dunyoga aldanib o‘z mas‘uliyatidan uzoqlashmaslikka chaqiradi.

O‘rta asrlar ijtimoiy hayotida mavjud bo‘lgan mulkiy munosabatlar bugungi kun mulkiy munosabatlaridan keskin farq qilib, ancha ibridoij mazmun kasb etadi. Mulkni tasarruf etish, undan foydalanish qonuniyatları jamiyat va davlat hayotida ijtimoiy individning xohish istaklaridan kelib chiqqan holda belgilangan. Mulkdor o‘z boyligi, mol-mulkini muayyan maqsadlarda foydalanishda uning taqsimotini sub‘ektiv manfaatlari doirasida qilgan. Bunday holatda jamiyatda tabaqalanish vujudga kelishi tabiiy. Biroq, mavjud tabaqalanishdagi tafovut keskinlashadigan bo‘lsa, jamiyat hayotida turli noroziliklar va ijtimoiy muammolar ham ildiz ota boshlaydi. Az-Zamaxshariyning yuqoridagi fikridan anglanishi lozim bo‘lgan yana bir narsa – boy tabaqani xayr-ehson qilishga majburlashda didaktik, ma’naviy-ruhiy ta’sir kerak.

Ijtimoiy tengsizlik o‘rta asrlarda jamiyatdagi oddiy ko‘rinishlardan biri edi. Xalqning quyi qatlami nochorlikda kun kechirar, iqtisodiy yetishmovchilik va ijtimoiy muhofazaning yo‘qligi bois jamiyatda ijtimoiy muhofazaga muhtoj kishilar behisob edi. Bundan tashqari ishsizlik darajasi yuqori bo‘lib, ish izlab yurganlar ham o‘sha davr uchun xarakterli xususiyatlardan biri edi. Kosiblar, hunarmandlar, dehqonlar og‘ir mehnat bilan ro‘zg‘or tebratardi. Yuqori qatlam – boylar, zodagonlar, hukmron doira vakillari iqtisodiy mo‘l-ko‘lchilikda yashashardi. Az-Zamaxshariy bunday hayot tarzini o‘ziga maqbul topmadidi. U ijtimoiy mo‘tadillik va ijtimoiy muhofaza tarafдори edi. bunga qanday erishiladi?

Natijalar. Az-Zamaxshariy jamiyat mexanizmini, strukturasini o‘zgartirish fikrida emas edi. U boshqacha davlat tuzumini shakllantirish to‘g‘risida o‘ylamagan yoxud, inqilobiy yo‘l bilan jamiyatni isloh qilish kabi g‘oyalar unga yot edi. Negaki, u islom ruhida tarbiya topgan, uning arkonlariga o‘ta sodiq kishi edi. Buning barobarida u yashab turgan ijtimoiy-siyosiy muhit ham islomiy edi. Az-Zamaxshariy jamiyatni shariat qonunlari bilan boshqarishni ilohiy hukm

deb qabul qildi. U musulmon va shariat qonunlariga, payg‘ambar sunnatlariga, Qur’oniylar hukmlarga so‘zsiz itoat qildi: «Bani Odamning solih ishlari payg‘ambar alayhissalomning sunnatlariga muvofiq bo‘lmasa, u xayrli ishlar maqbul va yuqori darajada bo‘lmas».

Alloma, Atvahuzzahab nomli asarida Mulkingga kerilma deb keltirgan 52- maqolasida sultanat sultoniga eslatib shunday degan:

Ey podshoh! Zafar quchgan bayroqlaringta mag‘rurlanma. Senga egilib turgan bu bo‘yinlar bilan, oldingda va ortingda seni qurshab ketayotgan otliklar bilan faxrlanma. Atrofingdagilarning sendan qo‘rkib titrab turishlari, itoat qilinadigan buyruqlar, imkonli ishlar seni g‘ururga boshlamasin. Katta mulkka ega bo‘laturib, ko‘pini ham oz sanash kabi odat seni aldab qo‘ymasin. Unutma, ustingda Ulug‘ Xukmdor bor. U Zotta nisbatan sening bu yuritayotgan hukmlaring arzimas “hukmchalar”dir. Unutma, ustingda buyurguvchi va qaytarguvchi Zot bor. U buyuk Zot oldida sening buyrug‘u qaytariqlaring “buyruqcha”laru “qaytariqcha”lardir.

Bilginki, xodimlaringning eng quyi darajadagisi sendan qanchalik haybatlansa, sening Ollohdan eng oz qo‘rqinching shunchalik bo‘lsin. Ulug‘ Zotning ulug‘ sultanati oldidagi egilishing shu darajada bo‘lsinki, yonoqlaring mudom tuproqlarga belansin. U Zotning ulug‘ligi seni o‘zingni ulug‘ sanashdan to‘ssin. Bilginki, sening xohlaganing emas, balki Ollox Taolo nimaniki xohlasa, barchasi bo‘lur.

Alloma ushbu maqolasida davlat raxbariga sening egallab turgan lavoziming Tangri tamonidan siylabmi yoki sinab berilganligiga ishora qiladi, mag‘urur, kibr, loqaydlik, qanoatsizlik, ochko‘zlik, bepisandlik, maishatparastlik kabi hastaliklarga podshoh duchyor bo‘lsa davlat inqirozga yuz tutadi. Xar bir xukumdon qo‘l ostidagilar uchun javobgaligini eslatadi.Yaratganning sultanati oldida ,sening davlatning xech narsa emas,uanoqlaring tuproqlarga belansin so‘zining ma’nosi,erdek unimdon,kechirimli va muruvvatli bo‘l. Xalqqa xizmat ko‘rsatish orqali xoliqni rizosini topishni eng yaxshi vazifa sifatida tafsiya etadi.

Shuni takidlash joizki, jamiyatdagi keskin ijtimoiy tabaqalanishni yo‘qotish va quyi tabaqaning hayot darajasini ko‘tarish doimo barcha davirlarda ham asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelgan xozirgi kunda ham davlatimiz rahbari tamonidan kambag‘allikni tugatish bo‘yicha olib borayotgan dasturlari alloma yashagan davirlarda ham asosiy mavzulardan biri bo‘lganligi ko‘rsatadi. Alloma yuqori tabaqa vakillarining insof adolatli bo‘lishga, o‘z molidan kambag‘allar uchun zakot va sadaqalar berishi orqali jamiyatda barqarorlik bo‘lishini ta’kidlaydi.

Az-Zamaxshariy o‘z faoliyati mobaynida boy tabaqani xayr-ehsonga da’vat qilishdan charchamadi. Agar ular xayr-sadaqalarini bajo keltirmasalar u dunyoda do‘zax azobiga giriftor bo‘lishlaridan ogohlantiradi: - “Faqiru miskinlarga vojib sadaqalarini bajo keltirmagan boylarga jahannamda dahshatli bir xandaq bordir” .

Jamiyatda ma'lum moddiy to'kinlikka erishgan kishilarning faoliyat yo'nalishini belgilashga harakat qilib, "Agar kishi oltin va kumushlar bilan bezansa, bu uning nafsidagi nuqsonga dalolat qiladi. Fozil kishi shunday kishiki, u oltin kumush bilan bezanish bilan birga uni to'g'ri siyosat va tadbirlarga sarflaydi", -deb yozganligini ijtimoiy munosabatlarda kambag'al qatlamning manfaatlarini himoya qilishga intilishining ifodasi sifatida talqin qilish mumkin. Shuningdek, Az-Zamaxshariy bu boy tabaqani zakot va sadaqa bermaslikdan ogohlantirish, qo'rqtishdan tashqari uni tashviq ham qiladi. Bu ishlarga rag'bat uyg'otmoqchi bo'ladi: "Qaysiki mol-mulkning zakoti bajo keltirilsa (berilsa), uning xayri-barakati ko'p bo'ladi". Deb takidlaydi. Yuqoridagi allomaning fikrlarlarining qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatib, Pahlovon Mahmud (1247-1326) yillarda yashagan Xorazmlik mutasavvuf alloma xukumdorlarga quyidagicha nasihat qiladi:

Podshohlik istasang bo'l el gadosi,

O'zingni unitu bo'l el oshnosi.

El toj kabi boshga ko'tarsin desang,

El qo'lin tutginu bo'l xokiposi - deb, alloma ushbu bayti orqali, kishiga saltanat sohibi bo'lish xalqqa xizmat qilish yekanligini uqtirib, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash orqali davladni taraqqiy ettirish ekanligini aytib Mahmud az-Zamaxshariyning oldinga surgan yuqoridagi falsafiy g'oyalalarini qanchalik muhimligi ko'rsatadi.

Az-Zamaxshariy shuningdek kishilarni boqimanda bo'lish, umidsizlik, xarakatsizlik, o'ziga ishonmaslik kabiyl illatlardan uzoq bo'lishga chaqiradi. U albatta kishilarning hayot qiyinchiliklari oldida esankirab qolishlarini yoki kimandal xayr – sadaqa kutib yotishlarini ijtimoiy mavjudot uchun xos bo'lмаган holat deb tushunadi. U umid, ilm va xarakat orqali, kishi har qanday qiyin holatdan chiqib keta olishiga ishonadi: "Tadbirkorlikda sa'y-harakat, taqdir qismatlarda g'oliblikka olib kelish demakdir" deb insonlarni harakatda bardavom bo'lishga chaqiradi.

Allomaning o'z davri shar'iy dunyoqarashidan chiqib, har qanday qiyinchiliklarni yengish mumkinligiga bu taqdirning hukmida emas, balki iroda erkinligiga bog'liqligini tushuntiradi. Yaxshi niyat va harakat qilish barcha muammolarning yechimi yekanligiga boshqalarning ham bunga ishonishini istashligining o'zi katta jasorat ekaniga shubha yo'q. Demak, inson bu dunyoda – o'z faoliyatida erkin, qanday yo'lni tanlashlik o'zining ixtiyorida va agar muayyan maqsad sari harakat qilsa, muvaffaqiyat qozonishi aniq. Az-Zamaxshariy buni o'z intilishlari orqali hayotida isbot etdi.

Adl va adolat tamoyilga ko‘ra, Alloh faqat yaxshilakni, ezgulikni yaratadi. Alloh har qandayadolatsizlik va razolatdan ozoddir. Allox agar bularni yaratganidaadolatsizlik qilgan bo‘ldi, yaxshilik va yomonlikni odamlar o‘zlarini yaratadilar, deydilar.

Alloma, Atvahuzzahab asaridagi Ishlarning yaxshirog‘i - o‘rtachasi deb keltirgan 45-maqolasida sultaniga eslatib shunday deydi:

Adolat bilan birga bo‘lib, zulmdan chekin. Ishlarning o‘rtachasini lozim bil. Haddan oshib ketish va xadga yetmay qolishni o‘rtachalikka havola qil. Ulchoving Dovud alayhissalomning sovut halqalarini o‘lchaganidek aniqlikka yetishiga intil. Imkoniningni oxirigacha sarf etib qo‘yma. Aks holda, toqating tugab, undan uyog‘iga zerikish boshlanadi. Nafsingta yoppasiga, duch kelgan ishni taklif qilma, balki holiga yarasha, tanlab-tanlab ish buyur. Shunda u orqaga chekinmaydi. Nafsingni O‘rtamiyona holda qoldirishing uni charchatib, zaiflashtirib qo‘yishdan yaxshiroqdir. Albatta, nafsingda orom olish ulushi ham borligini unutma, chunki bu uning mukammalligi va salomatligiga sababdir.

Biroq, Az-Zamaxshariy kundalik hayot tarzi talab qiladigan darajada mablag‘ga ega bo‘lish kerak deydi. Ortiqchasi g‘am-tashvish keltirish bilan birga, kishi dunyodan o‘tganidan keyin farzandlari, yaqinlari o‘rtasida meros talashishlik kilishliliki jamiyat qusurlaridan hisoblanadigan odatlarni keltirib chiqaradi: “Ba’zan yaqin kishing – og‘a-ining senga go‘yo soqchi va nazoratchi kabi bo‘lib o‘limingni, yaqin vaqtida sening qabrga qo‘yilishingni istarlar; bolang – mol-dunyo menga qoladi, deydi; tug‘ishgan og‘a-ining esa, o‘g‘ling borligi uchun merosdan mahrum bo‘lgani sababidan sen uchun astoydil jon kuydirmaydi. Xullasi kalom, sen g‘aflatda bo‘lma – hech bir qarindosh urug‘dan va yaqinlardan foyda yo‘q, o‘g‘ling yuraging bo‘lagi bo‘la turib, sening tezroq o‘lishingni kutib, merosga tezroq egalik qilish orzusida bo‘lganidan keyin boshqalardan ne umid bo‘lg‘ay?”.

Az-Zamaxshariyning boylikka butkul qarshi odam deb o‘ylasak, xato qilamiz. U hayot tajribasidan yaxshi biladiki, individning ijtimoiylashuvi jaryonida uning manfaatlarini qondirish uchun zamin yaratadigan narsa – mol-dunyo, boylik bo‘lib, u inson uchun hayotiy zarurat. Mablag‘ga ega bo‘lmaslik yoki muayyan moliyaviy tayanchsiz yashash insonga turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday ham murakkab jarayonlar asosiga qurilgan jamiyatdagi hayotni yana ham murakkablashtiradi: “Kimniki mol-dunyosiyu boyligi o‘zidan uzoq bo‘lsa, uning ahvoli nochor (zaif) bo‘lib, halokatga giriftor bo‘ladi”.

Muayyan boylikka ega bo‘lgan kishi, uni to‘g‘ri sarflashni ham bilishi kerak. Uni keragidan ortiqcha sarflash shaxsning jamiyat orasida ijtimoiy mavqesini yo‘qotib, turli manfaatlar orasida ziddiyatli ahvolga solishi tabiiy. Bu Az-Zamaxshariy fikricha, “kufroni ne’mat” ya’ni, Olloh ato qilgan ne’matga bepisandlik bo‘lsa, ikkinchidan u kishining oilasini

yoki daromad manbai hisoblanadigan faoliyat turini tanazzulga yuz burishiga sabab bo‘ladi: “Mol-mulkni isrof qilish “kufroni ne’mat”dir, o‘ylamasdan boyligini sarflash to‘liq tanazzulga olib keladi”.

Umuminsoniy qadriyatlardan hisoblangan birovga og‘ir vaqtida ko‘mak berishlik allomaning nazdida jamiyatning eng kichik birligi oiladan tortib, butun jamiyat barqarorligi uchun ham eng zaruriy tamoyillardan biridir. Buni mutafakkir o‘z uslubiga xos tarzda quyidagicha tushuntiradi: “Agar birovlar ishini osonlashtiruvchi bo‘lsang, barcha yo‘llar senikidir. Agar qiyinlashtiruvchi bo‘lsang o‘z oilang ham seniki emasdир” - deb alloma ijtimoiy munosabatlarda kishilarni bir- birlariga xolis istak bilan ko‘mak berish,adolatni o‘ziga dasturul amal qilsa oila va jamiyatda faravonlik bo‘lishini keltiradi.

Az-Zamaxshariy o‘z fikriga ega qat’iyatli olim edi. Ilmda faqat rost gapirar vaadolat yuzasidan ish tutardi. Bu haqda uning zamondoshi, shogirdi tarixchi Rashiduddin al-Vatvot shunday xotirlaydi: “Chindan ham bu inson, garchand barcha bilimlarni to‘la egallagan va jami voqealarning sohibi bo‘la turib, haqiqatning achchiqligi-yu, halolu poklikning haroratiga qaramasdan o‘ta sabr-toqatli kishi edi. Hatto o‘ziga zarar bo‘lsa-da, u doimoadolat yuzasidan ish tutar edi” .

Balki, u mana shu xislati –adolatpeshaligi uchun saroy olimlariga yoqmagandir. Shu kabi holatlarni ko‘plab boshidan kechirgan kishi mana bunday xulosaga kelishi mumkin: “Qancha odamlaru qavmlar borki, sizga go‘yo ip kabi eshilib mulozamat qiladilar, lekin ular payt poylab fasod chiqarishga intiladilar, g‘aflatga tushib shundaylarga sira aldanmangizlar” .

Dunyoda moddiy manfaatni ko‘zlab yashayotgan kishilardan shikoyat qiladi, shu kabi johilu nodonlarning oshig‘i olchi, iqboli baxt o‘shalarga boqishidan kuyunadi: “Noqisu yetishmovchiliklar chodir qurdi, baxtu iqbol uning hamrohi bo‘ldi: ilmu fazilat safarga chiqdi, yo‘qligu bebaxtlik yon atrofdan unga itoat qildi; johilu nodonlar qaerda bo‘lsa, iqboli baxt ularga tomon boqqan, olimu fozillar esa qaerda bo‘lsa baxtsizdirlar” .

Xulosa. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy umri davomida boylikka ruju qo‘ymadi, boylik va mansab ketidan quvmadi. U mansab ilinjida biror podshoh yoki vazirning ostonasiga bormadi. Hukmdorlarga yozgan qasidalari faqatgina ilm olishi yo‘lida o‘ziga qulayliklar yaratish uchun edi. Az-Zamaxshariy mansab uchun hokimiyat sub’ektlariga xushomad qilmadi, negaki, bu borada uning o‘z qarashlari bor edi: “Mansab ilinjida bo‘lgan (qaram) kimsalarning tomirlari kesilgandir, ular oladigan farmonlari esa bir– biriga zarba beruvchilardir”.

Senga baxtsiz shahar haqida xabar berayinmi? Baxtsiz shahar hokimi zolimdir. Zulm - otlarning tuyog‘idanda toptaguvchirok o‘zanidan toshib, atroflarni yiqib, xarob qiladigan seldanda buzg‘unchiroq. Zulm hosillarni qovjiratib, qaqshatib ketadigan garmsel shamollardanda

quruttuvchiroq, qahatchilik yillaridan-da zararliroq. Zulm - duo kalimalarini ko'kka yuksalishdan, ko'kdan yog‘ayottan barakani yerga tushishdan to‘sadi.

Sen bu jabru sitam shaxriga kirishdan o‘zingni saqla, garchi bu shaharning eng hurmatli, mol-dunyo va farzandlari ko‘pligi bilan faxrlanadigan eng Nasibador kishilaridan bo‘lsang-da. Bas, sen kut, xali zamon bu shaharni o‘laksaxo‘r qushlar egallaydi, chaqmoqlar chaqilib, zilzilalar qo‘padi, hali zamon bu shahar ahlini yer yutadi.

Zolim podsho qo‘lidagi shaharda fuqoralarning qadri – qimmati toptaladi, ularning erkinliklari to‘siladi,jamiyatdagi adolatga qurilgan tizimlar izdan chiqadi,shuning natijasida;zlum, karrupsiya, umidsizlik,ahloqsizlik davlat tizimlariga ishonch yo‘qoladi. Oqibatda bunday shahara alloh tamonidan shiddatli bir balo kelishidan ogohlantiradi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro`yxati:

1. Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. “Рабиъ ул-аброр ва нусусул ахбор” (“Яхшилар баҳори ва ҳабарлар матнлари”). J. 3. Bag‘dod: 1975. – B. 219.
2. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992. – B. 77.
3. Temur tuzuklari.- T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1996. – B. 86.
4. A.Madvaliyev,D.Xudayberanova.O‘zbek tilining izohli lug‘ati A-D.-Toshkent:”G‘ofur G‘ulom”, 2022. – B. 193.
5. У.Кориев, М.Ҳакимжонов. “Арабу ажамлар устози”. Ўзб. Адабиёти ва санъати. 1995. 14 апрель. – Б. 6.
6. https://milliycha.uz/adolat-3/?utm_source=chatgpt.com